

Sulaymonov Mo‘minjon Yusbjonovich

Filologiya fanlari nomzodi, NamDU dotsenti

msulaymon62@mail.ru 93 705 25 55

Xoldorova Gulnoza Husniddinovna

Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti

gulnozaholdarova7@gmail.com 99 978 05 22

UDK 82.09(092)

**HOFIZ XORAZMIY VA ALISHER NAVOIY IJODIDA IRSOLI
MASAL SAN’ATI**

Annotatsiya: Alisher Navoiy ijodi necha asrlardan buyon nafaqat, turkiy dunyo, balki umumjahon tadqiqotchilarining diqqat markazida turgan masalalardan biridir. Navoiyshunoslik fani yildan yilga yangi yutuqlarni qo‘lga kiritib, bu sohada keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Yangi tadqiqotlar natijasida Alisher Navoiy ijodining keng bir sarhad ekanligi, bu mo‘jizakor badiiy ummonda talqin etilishi shart bo‘lgan yangi qirralar ko‘p ekanligiga amin bo‘lamiz. Mazkur maqolada Navoiy ijodi umumturkiy adabiyot zaminidan oziqlangani, xususan, turkiy adabiyot namoyandalaridan biri Hofiz Xorazmiy ijodining Alisher Navoiy ijodiy tafakkuriga ta’siri masalalari to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Kalit so'zlar: navoiyshunoslik, Alisher Navoiy, Hofiz Xorazmiy, umumturkiy adabiyot, an'anaviy obraz, irsoli masal



Сулайманов Моминжон Юсубжонович

Кандидат филологических наук, доцент

Халдорова Гульноза Хусниддиновна

Докторант Ферганского государственного университета

ИСКУССТВО ИРСОЛИ МАССАЛ В ТВОРЕНИЯХ ГАФИЗА

ХОРАЗМИЯ И АЛИШЕРА НАВАИ

Аннотация: Творчество Алишера Навои является одной из проблем, которые на протяжении нескольких столетий находятся в центре внимания не только тюркского мира, но и мировых исследователей. Наука мореплавания с

каждым годом делает новые достижения, и в этой области проводятся обширные работы. В результате новых исследований мы убеждены, что творчество Алишера Навои – это необъятный рубеж, что в этом чудесном художественном океане есть много новых аспектов, которые необходимо интерпретировать. В данной статье говорится о том, что творчество Навои питалось национальной турецкой литературой, в частности, о влиянии одного из представителей турецкой литературы Хафиза Хорезми на творческое мышление Алишера Навои.

Ключевые слова: навоиведение, Алишер Навои, Хафиз Хорезми, общетюркская литература, традиционный образ, наследственная притча.

Sulaimanov Mominjon Yusubjonovich

Candidate of philological sciences, associate professor

Holdorova Gulnoza Husniddinova

Doctoral student of Fergana State University

THE ART OF IRSOLI MASSAL IN THE CREATIONS OF HAFIZ KHORAZMIY AND ALISHER NAVA'I

Abstract: Alisher Navoi's work has been one of the issues that have been in the focus of not only the Turkic world, but also worldwide researchers for several centuries. The science of navigation science has been making new achievements every year, and extensive work is being carried out in this field. As a result of new research, we are convinced that Alisher Navoi's work is a vast frontier, that there are many new aspects that must be interpreted in this wonderful artistic ocean. This article talks about the fact that Navoi's work was nourished by the national Turkish literature, in particular, the influence of one of the representatives of Turkish literature, Hafiz Khorezmi, on Alisher Navoi's creative thinking.

Key words: Navoi studies, Alisher Navoi, Hafiz Khorezmi, all-Turkish literature, traditional image, hereditary parable

Kirish.

Hofiz Xorazmiy Navoiygacha bo'lgan davrda eng mukammal devon tartib qilgan adiblardan biri bo'lsa-da, Alisher Navoiy bu adib haqida, ijodi to'g'risida hech qanday qaydlar qoldirmagan. Hofizi Xorazmiyning Xorazmda tug'ilib, Sherozda ijod qilganligi uning taqdir bitigi bo'lganidek, Devonining ham Hindistondan topilishi, garchi Atoyi, Gadoiy kabi adiblar bilan bir davrda yashagan bo'lsa-da, o'z davrining nodir manbalari – “Funun ul-balog'a”, “Majolis-un-nafois”, “Nasoyim ul-muhabbat” da qayd etilmasligi yana-da sirlidir. Bu sirlilik, albatta, yangi tadqiqotlar uchun manba bo'lishiga ishonamiz. Hofiz Xorazmiy ijodini o'rganish muhim ilmiy-estetik va nazariy ahamiyatga ega, chunki uning adabiy merosi XIV asrning oxiri XV asrning boshlaridagi o'zbek adabiyoti darajasini, mavqeyini belgilashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Hofiz Xorazmiy lirikasini o'rganish katta amaliy ahamiyatga ham ega bo'lib, bularsiz o'sha davr adabiyotini to'la va yaxlit tasavvur qilish mumkin emas. [6, 6]

Alisher Navoiy ijodi ham aslida Hofiz Xorazmiy kabi buyuk ma'naviy chashmalardan oziqlangan. Navoiy ijodiy qarashlarining shakllanishiga omil bo'lgan adiblar bilan bog'liq uzviyliklar haqida bir necha turkum maqolalar e'lon qildik. Mazkur maqolada Navoiy garchi nomini zikr etmagan bo'lsa-da ma'naviy qarashlarida anchayin umumiylik kasb eta oladigan Navoiy va Hofiz she'riyatidagi o'xshash jihatlar tadqiqiga yuzlanamiz.

Adabiyotlar tahlili.

Hofiz Xorazmiy tarjimayi holi va ijodi haqida dastlabki ma'lumotlarni professor Hamid Sulaymon “Devon”ning 1-kitobiga yozgan “So'z boshi” da bayon qilgan. Bu esa shoir tarjimayi holini o'rganishda katta yutuq bo'ldi. Filologiya fanlari doktori Najmiddin Komilovning “Bu qadimiy san'at” nomli risolasida Hofiz Xorazmiy ijodidan tahlillarga duch kelamiz.

Hofiz Xorazmiyning qo'lyozma devoni turkiyalik olim professor Rajab To'parli tomonidan 1998-yilda to'liq holda nashr etildi. Anqarada chop etilgan bu kitobga shoir qo'lyozmasining faksimilisi ham ilova qilinganligi nashr ahamiyatini oshirgan.

Hofiz Xorazmiy asarlarini adabiyotshunoslik, manbashunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etish XXI asrda ham katta qiziqish bilan davom etmoqda. Filologiya fanlari nomzodi J. Jo'rayev Hofiz Xorazmiyning yagona marsiyasi haqida maqolalar yozdi va marsiyani e'lon qildi.

Tojikistonlik olim A.Xudoydodovning tojik va o'zbek adabiy aloqalari haqidagi tadqiqotida ham Hofiz Xorazmiy ijodiga bag'ishlangan o'rinlar mavjud.

Hofiz Xorazmiyning qo'lyozma devoni birinchi marta maxsus o'rganish professor N.M.Mallayevning shogirdi M.Sulaymonov tomonidan amalga oshirildi. U o'zining "Hofiz Xorazmiy va o'zbek lirik she'riyatining rivoji" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida shoir ijodiga oid dastlabki fikr va malohazalarini bayon qilgan. O'zbek adabiyotshunosligi tarixida Hofiz Xorazmiy va uning adabiy faoliyatini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarni uch qismga bo'lish mumkin:

1-qism professor Hamid Sulaymonov va boshqalarning shoir ijodi haqidagi maqolalari;

2 -qism Mo'minjon Sulaymonovning nomzodlik dissertatsiyasi (1996 yil)

3-qism 1996-yildan keyingi XXI asrda yaratilgan Hofiz Xorazmiy faoliyati haqidagi yangi tadqiqotlar.

Maqolada mazkur manbalarga tayanamiz va Navoiy ijodi bilan uyg'un jihatlarini tahlilga tortamiz.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur maqolada qiyosiy va chog'ishtirma usullarga murojaat etildi. Shuningdek, avvalgi tadqiqotchilar mazkur masala yuzasidan qo'llagan qiyosiy-tipologik metodga tayanildi. Baytlar xususida fikr-mulohaza bildirishda analitik tamoyilga amal qilinib, badiiy asar tili nuqtayi nazaridagina tahlil qilinmay, nazariy xulosalar, fikrlar bilan boyitildi.

Tahlillar va natijalar

Asli Xorazm zamini farzandi bo'lsa-da, o'zini mashhur fors-tojik shoiri Hofiz Sheroziyning shogirdi deb hisoblagan va shu sababdan Hofiz taxallusini

tanlagan bu soʻz sanʼatkori hozirgacha bizga maʼlum boʻlgan va oʻzbek tilida Alisher Navoiyga qadar mukammal devon tartib qilgan yagona shoirdir.

Hofiz Xorazmiy gʻazaliyotida turkiy adabiyotda mavjud va umumiy boʻlgan bir necha anʼanaviy obrazlarga shoirning shaxsiy dunyoqarashi bilan yondashilganligi, badiiy jihatdan boyitilganini ham koʻramiz. Hofiz devonida mavjud 1052 gʻazal shoirning naqadar kuchli badiiy did sohibi ekanligidan darak beradi. Bu esa Navoiyga qadar ham turkiy adabiyotning aslida gullab yashnaganini, alohida badiiy-estetik hodisa ekanligini dalillovchi jihatdir. Alisher Navoiy ijodi fors adabiyotiga ergashib yoki taqlidan vujudga kelgan hodisa emas, balki Hofiz kabi buyuk ijodkorlarning maʼnaviy chashmalari bilan aloqadorligi haqiqatga ancha yaqin. Bu ikki adib dunyoqarashidagi ayrim oʻxshashliklar, sheʼriy sanʼatlarni qoʻllashdagi umumiylik, obrazlarga yondashuvdagi oʻzaro aloqadorlik bizni shu xulosalarimiz sari yetaklab borishi shubhasiz. Maqolada xulosalarimizning faqatgina bir qismini, yani Alisher Navoiy va Hofiz sheʼriyatidagi irsoli masal sanʼatini qoʻllashdagi oʻziga xosliklar masalasiga toʻxtalib oʻtamiz.

Xalqimizda “Soʻz koʻrki - maqol” degan ajoyib hikmat bor. Bu naql nutqimizga xos boʻlgan oʻzbekona lutf ham demakdir. Maqollar, hikmatlar bilan bezangan nutq taʼsirchan boʻlishi hammaga maʼlum.

Maqol xalq hayoti tajribalari xulosasini ifodalovchi hikmatli fikrlar majmuasidir. U oʻz tabiatiga koʻra qadimiy va xalqaro janrlardan biridir. Dunyoda oʻz maqollariga ega boʻlmagan xalqning oʻzi yoʻq. Chunki har bir xalq hayotiy tajribalarini maqollar shaklida avlodlarga qoldiradi. [5, 25]

Maqollar nafaqat xalq ogʻzaki ijodidan ogʻizdan ogʻizga oʻtib, balki yozma adabiyot, xususan, sheʼriyat namunalari orqali ham avlodlarga yetkaziladi. Bu vazifa adabiyotimizdagi badiiy-tasviriy vositalardan biri irsoli masal sanʼati yordamida bajariladi. Irsoli masal aslida arabcha boʻlib, “maqol kiritish” maʼnosini bildirib, sheʼriyat va nasrda ifodalanayotgan biron fikrni isbotlash uchun xalq maqolini keltirish sanʼati sanaladi. [2, 59]

Har bir asar yaratilgan davrning til xususiyatlarini, shu bilan birga madaniyatini ham yaqqol aks ettiruvchi oynadir. Hofiz Xorazmiy gʻazallarida ham bu jihatni sezish mumkin. Adib asarlarining til jihatlari u yashagan davrning maʼnaviy qiyofasi haqida ham maʼlumot bera oladi.

Bu oshiqdargʻa rahm aylab kel, ey jon, ezgulik qilkim,

Ne turlu tosh tashlasang tushar ul oqibat boshgʻa.[3,7]

Baytda “birovga choh qazisang, oʻzing yiqilasan” mazmunida “tosh otsang, boshingga tushadi” tarzida maqol qoʻllangan. “Yaxshilikka yaxshilik qaytadi” mazmuni birinchi misradagi “ezgulik qilkim..” hukmidan ham anglashilib turibdi.

Ziyon qilmas raqiblarning yurumaki sening birla,

Valekin koʻngul ozdurur chibin tushar esa oshgʻa. [3,18]

Shoir hayotiy misolni ustalik bilan baytga singdira olgan. Taomga chivin tushsa, koʻngilni ozdiradi. Bu oʻrinda xalqonalik, turkonalik shukhi sezilmoqda.

Saning siringni jon ichra man, ey jon, saqlagʻay erdim,

Vale ohim oʻti birla chiqadur sirringiz toshgʻa.[3,126]

Sirni jon ichida saqlash oʻzgacha tasvir, lekin xalq tilida bor ibora. Maʼshuqaga ey jon, deya murojaat shakli, jon ichra sir saqlash tarzidagi ifoda gʻazalning badiiy qimmatini oshirish bilan birga tilimiz latofatini ham koʻz-koʻz qilmoqda. Sirning oh oʻti birla toshgʻa chiqishi yana-da jozibali.

Bir dam xayoli xoli labing koʻzda boʻlmasa,

Oq tushkay ul zamonda koʻzimning qarosina. [3,234]

“Koʻziga oq tushsin” iborasi koʻproq qargʻish tarzida hozirgi oʻzbek adabiy tilida ham uchraydi.

Ushbu bisotda anga tang koʻrman oʻzgani,

Chun har piyoda tang boʻla bilmadi shoh ila. [3,225]

Baytda Hofiz Xorazmiy shaxmat oʻyinidagi holatga ishora qilmoqda. Piyoda shoh bilan teng boʻlmasligi, bu bayt oʻz oʻrnida ijtimoiylik ham kasb etadi.

1-jadval

T/r	Hofiz Xorazmiy gʻazallaridagi shakli	Hozirgi shakli
-----	--------------------------------------	----------------

1	<i>Ko'ngli ul dildorning po'lod yo ohan erur.</i>	bag'ritosh
2	<i>Domani pokinga nogoh tegmasun garde teyu</i>	gard tegmasin, gard yuqmasin
3	<i>Zulfi zanjirina Hofiz ko'ngling bag'lamakim</i>	ko'ngil bog'lamoq
4	<i>Etsa ko'nglagi etaginga ko'ngulning ilgi</i>	ko'nglim ko'yilagingning etagiga bog'lanib qoldi (badiiy uslubda qo'llanilishi mumkin)
5	<i>Ne qila bilgaymen ushbu jonni man sandin ayab</i>	jonni ayamoq
6	<i>To'lg'anur tolg'a ham yilon, ey do's t</i>	Ilon kabi to'lg'onmoq
7	<i>To jahonning ichra qolsin yaxshi ot.</i>	Yaxshi nom qoldirish
8	<i>Ko'ngul sirrini bo'lmasun tesang fosh</i>	Sirni fosh qilmoq
9	<i>Ko'zni yumsang jam'i ashyodin</i>	Umidini uzdi, e'tibor bermadi
10	<i>Ko'ngul ham sinmag'ay erdi qoshining juft-toqinda</i>	Ko'ngil sinishi
11	<i>Bu Hofiz ko'nglining mulkini olding</i>	Ko'ngil olish
12	<i>Shakar tahsin qila turg'ay, tili bo'lsa, tudoqingg'a</i>	Tili shakar, labidan bol tomadi
13	<i>Bordur oy yuzida ko'zum haqi,</i>	Ko'z haqi
14	<i>Ko'z uchi birla boqib aylasang bu qulg'a rioyat</i>	Ko'z uchi bilan boqish
15	<i>Yiroq bo'lubu mandin yovuq yomonlarg'a Bo'lur esang chiqar o'sh emdi yaxshi ot, ey do'st</i>	Qozonga yaqin yursang qorasi yuqadi
16	<i>Sanga shogird bo'lg'ay ul zamonda Bu Ali Sino</i>	ibn Sinoni shogirdi bo'lib keting-ey (og'zaki nutqda uchraydi)

Hazrat Navoiy asarlarida ham xalq mulki, soʻz koʻrki boʻlgan maqollarni avlodlarga yetkazish vazifasi ajib nafosat bilan amalga oshirilgan. Bu oʻrinda biz buyuk adibning irsoli masal sanʼatidan foydalanish mahoratini nazarda tutmoqdamiz. “Farhod va Shirin” dostonidagi quyidagi baytlar fikrimizni isbotlaydi:

Ki, koʻzni bas rafeʼ ayvongʼa solding,

Biyikrak toʻpaning tupragʼin olding. [1,43] Bu baytda shoir “*tuproq koʻtarsang, katta tepadan koʻtar*” degan xalq maqolini ishlatadi.

Emas bu tesha urmoq ishga dardxurd,

Kecha-kunduz qaqqarbiz ohani sard. [1,230] Baytning ikkinchi misrasida shoir foydasiz va imkonsiz ish uchun urinishning behudaligi haqida soʻz yuritadi. U “*ohani sard kuftan*”(sovuq temirni oʻyish) degan xalq maqolidan foydalanadi.

Xirad dehqoni mundogʻ nuktai der,

Ki dona sochqoli yaxshi kerak yer. [1,283]

Bu baytda shoir Xusravning asosiy muddaosi – yana bir uylanib toj-u taxtga yarashiqli, boshqa vorislardan afzalroq farzand koʻrish niyatini tasdiqlash uchun “*urugʻni yaxshi yerga sochish kerak*” degan hikmatli soʻz orqali maqsadni ochib beradi.

Yilon netgay urub nish ajdahoni,

It urmak birla yonmas korvoni [1,306]

“*It hurar – karvon oʻtar*” maqolidan Xusravning Farhodan ustunligini dalillash maqsadida foydalanilgan.

Qamishliq ichra chun oʻt tushti nogoh,

Qurugʻ-oʻl kul boʻlur boʻlgʻuncha ogoh. [1, 312]

Nogoh qamishzorga oʻt tushsa, “*hoʻl quruq baravar yonadi*”.

Usholdi tosh birla ul qotiq bosh,

Masaldurkim, ushotur boshni tosh [1,320]

Bu baytda Shopur (Farhodga behush qiladigan gulni islatib, o'zidan ketkizgan) hiylagar boshiga tosh bilan urib o'ldirgani haqida yozadi va "boshni tosh ushatadi" maqolini ishlatadi.

Ko'z ochmassen debon: kelgon qulimdur,

Masal chin bo'ldikim, uyqu o'limdur. [1,454]

Xalq orasida keng tarqalgan "*Uyqu – o'lim bilan barobar*" maqolini ishlatadi.

Bu so'zni ahli hikmat deb, durur xo'b,

Yamondin oz behkim, yaxshidin ko'p [1,466] U yuqoridagi baytdagi o'z muddaosi mizoj mayl ko'rsatgan narsaga ortiqcha ruju' qilmaslik lozim, degan fikrni tasdiqlash uchun "*yaxshining ko'pdan yomonning ozi yaxshi*" maqolini keltiradi.

Xulosalar

Yuqorida ko'rib o'tganlarimiz asnosida shunday xulosani aytish maqsadga muvofiqki, Hazrat Navoiy ham Hofiz Xorazmiy ham o'z asarlarida tarbiyaviy ahamiyatni, ta'sirchanlikni va badiiylikni ta'minlash maqsadida xalq mulkidan mahorat bilan foydalangan va baytlarning badiiy barkamolligiga erishgan. Bu esa bu ikki adibning badiiy adabiyotni odob, ma'rifat ulashuvchi vosita deb tushunishlaridan, adabiyotga munosabatlari umumiyligidan deb baholash mumkin. Chunki haqiqiy so'z san'ati insoniyatga faqat ezgulik ulashishdan, ezgu qadriyatlarni shakllantirishdan iboratdir.

Adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy, Mukammal asarlar to'plami, 20 jildlik, 8-jild, T:, 1991
2. Hojiahmedov A. "Mumtoz badiiyat malohati". "Sharq" T:, 1999.
3. Hofiz Xorazmiy Devon.1-kitob.- T:1981.

4. Sulaymonov M. Hofiz Xorazmiy va o'zbek lirik she'riyatining rivoji:Filol.fan.nom.diss.avto-ref. – T:1996
5. Sulaymonov M. “O'zbek xalq og'zaki ijodi”. Namangan, 2008.
6. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik/darslik.- T.: “Tamaddun”, 2019.